

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

З.Т.Исаева	
«Системный подход к анализу парадигматики и синтагматики»	1438
Г.М.Мамаджанова	
Язык как фактор формирования культурных кодов	1442
V.A.Giyosova	
Reference units for children with glutenomies	1446
З.Ш.Нуридинова	
Функции художественного перевода в контексте межкультурной коммуникации	1449
M. T.Xalilova	
Publitsistik uslubga xos mikromatnlarning funksional-semantik belgilari	1452
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyotlar ifodalanishida psixofiziologiya va etnik xoslanish	1457
A.A. Shodiyeva	
Presuppozitsiya pragmatikaning asosiy obyektlaridan biri sifatida	1462
S.M.Qurbonova	
Antroposentrik lingvistika tarmoqlari	1466
M.A.Xusanova	
Badiiy nutqda qo'llangan og'zaki nutq unsurlarining vazifalariga doir	1473



UO'K: 8.08+(042)

PRESUPPOZITSIYA PRAGMATIKANING ASOSIY OBYEKTLARIDAN BIRI SIFATIDA

PRESUPPOSITION AS ONE OF THE MAIN OBJECTS OF PRAGMATICS

ПРЕСУПОЗИЦИЯ КАК ОДИН ИЗ ГЛАВНЫХ ОБЪЕКТОВ ПРАГМАТИКИ

Asila Shodiyeva Anvarjon qizi

Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada lug'aviy birlikning mohiyati uning ichki tomoni – semema orqali va shunga ko'ra uning boshqa til birliklari bilan munosabatga kirishuvi orqali belgilangan. Pragmatikaning asosiy obyektlaridan biri bo'lgan presuppozitsiyaga ishora qiluvchi leksik sath birliklarining gapda hosil qilgan grammatik ma'nolarini aniqlash va ularning presuppozitsiyaga ishora qilishi qonuniyatlarini ochib berish, ular ishtirokida tuzilgan sodda gaplarning mazmuniy murakkablashuvi sabablarini aniqlash maqsad qilib belgilangan. Shuningdek, presuppozitsiya haqidagi tilshunos olimlarning qarashlari ilmiy tahlillar asosida berilgan.

Abstract

The essence of the lexical unit is defined in the article through its inner side - sememe, and accordingly, through its relationship with other language units. The goal is to determine the grammatical meanings of the lexical units referring to the presupposition, which is one of the main objects of pragmatics, in the sentence, to reveal the laws of their reference to the presupposition, and to determine the reasons for the content complexity of simple sentences made with their participation. Also, the views of linguists about presupposition are given based on scientific analysis.

Аннотация

В статье сущность лексической единицы определяется через ее внутреннюю сторону – семему, и соответственно через ее взаимоотношения с другими языковыми единицами. Цель - определить в предложении грамматические значения лексических единиц, отсылающих к presupпозиции, которая является одним из основных объектов прагматики, выявить закономерности их отнесения к presupпозиции, а также определить причины содержания, сложности простых предложений, составленных с их участием. Также на основе научного анализа приводятся взгляды лингвистов на presupпозицию.

Kalit so'zlar: presuppozitsiya tagbilim, ichki ma'no, monema, pragmatik ma'no, sintagmatik ma'no, hukmning tabiiy asosi, semantik, pragmatik presuppozitsiya.

Key words: presupposition tagline, internal meaning, monema, pragmatic meaning, syntagmatic meaning, natural basis of judgment, semantic, pragmatic presupposition.

Ключевые слова: слоган presupпозиции, внутренний смысл, монема, прагматическое значение, синтагматическое значение, естественная основа суждения, семантическая, прагматическая presupпозиция.

KIRISH

Presuppozitsiya hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo'shimcha ikkilamchi ma'lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo'lib o'tgan yoki bo'lajak jarayon haqidagi oldindan ma'lum bilimlari kabi omillarta'sirida nutqiy maydonda namoyon bo'ladi.

Presuppozitsiyaning o'rganilish tarixi o'ziga xos bo'lib, uni o'rganish bilan dastlab tilshunoslar emas, balki mantiqshunoslar shug'ullanib, hayotga tadbir etganlar. Jumladan, presuppozitsiya tushunchasi mashhur mantiqshunos olim G.Frege [17;185-186] g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, uning fikricha, presuppozitsiya hukmning tabiiy asosi sifatida o'rganilishi lozim[12;115].

TILSHUNOSLIK

Bugungi kunga qadar presuppozitsiya *tagbilim, ichki ma'no, monema, pragmatik ma'no, sintagmatik ma'no, hukmning tabiiy asosi, so'zlovchining bilish fondi, ularning oldindan kelishuvi, oldindan ma'lum bilimlarning jami*[3;11] atamaları ostida o'rganib kelinmoqda. Presuppozitsiya terminini tilshunoslikka olib kirilishi P.Strosson nomi bilan bog'liq. Uning tadqiqoti natijasi ham G.Fregening *tabiiy asos* qarashiga yaqin keladi[11;115]. Bizning fikrimizcha, presuppozitsiya hodisasini **sintaktik strukturaning ikkilamchi ma'nosi** atamasi ostida o'rganish ham xato bo'lmaydi. Chunki har qanday presuppozitsiya hodisasi kuzatilgan sintaktik strukturani tahlil qilar ekanmiz, undan ifodalangan presuppozitsiya sintaktik sturukturada bevosita ishtirok etmay, strukturaning ifodalagan ikkilamchi ma'nosi sifatida yuzaga chiqishini ko'rishimiz mumkin. Biror bir presuppozitsiya hodisasi kuzatilgan gap yo'qki, gapda ifodalanayotgan asosiy ma'no bevosita ifodalanayotgan proppozitsiyadan emas, balki ma'lum bir tashqi signallar yoki nutqiy vaziyat orqali yuzaga chiqayotgan presuppozitsiyadan anglashilsa, shunday ekan biz presuppozitsiya hodisasi haqidagi ishlarimizni **sintaktik strukturaning ikkilamchi ma'nosi** yoki **ikkilamchi ma'no** atamaları ostida berish tarafdorimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Presuppozitsiyani yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan nomlanishlardan kelib chiqqan holda o'rganilish doirasi keng bo'lgan hodisa sifatida e'tirof etiladi. Presuppozitsiyani turli sathlarda turli tomonlama yondashib fikr-mulohazalar bildirgan olimlar uni **semantik, pragmatik [13;91-101], keng, tor, lingvistik presuppozitsiya [4;14-15], ekzistensial, sintagmatik, konnotativ, kommunikativ, logik [1;85], leksik, leksik bo'lmagan, noekzistensial, yakka, umumiy, universal [7;367]** kabi turlarga bo'lib o'rganildi. Z.Burxonov presuppozitsiya hodisani o'rganish bilan bog'liq mavjud ilmiy manbalar tahlili asosida lingvistik presuppozitsiyaga xos quyidagi eng umumiy belgilarni ko'rsatib o'tadi:

1. Lingvistik presuppozitsiya til birligining kontekst, nutq vaziyati, so'zlovchi va tinglovchilarning voqelik haqidagi umumiy bilimlari hamda til ko'nikmalari bilan bog'liq jihatlarini aks ettiradi.

2. Lingvistik presuppozitsiya sintaktik strukturada yashirin ifodasiga ega bo'lgan vaziyat ifodasi hisoblanadi.

3. Lingvistik presuppozitsiya asosiy hollarda tilda amal qiluvchi tejash tamoyili asosida yuzaga chiqadi. Tejash tamoyiliga ko'ra sintaktik qurilma tarkibidan tushirib qoldirilgan gap uzvining vazifasini shu qurilmadagi boshqa birlik zimmasiga yuklatish asosida shakliy ixchamlikka erishish lingvistik presuppozitsiya yordamida amalga oshiriladi.

4. Lingvistik presuppozitsiya proppozitsiya bilan bir qatorda gapning semantik tuzilishida ishtirok etadi va har qanday gapni mazmunan murakkablashtiradi. Buning natijasida gapda shakl va mazmun birligi buziladi.

5. Lingvistik presuppozitsiya gapda bevosita ifodalangan proppozitsiyaga semantik jihatdan aloqador bo'lgan axborotni aks ettiradi va asosiy hollarda ayni proppozitsiyaga semantik jihatdan zidlanadi [3;11]. Bu presuppozitsiya hodisasini har tomonlama qamrab olgan umumiy belgilar edi.

O'zbek tilshunosligida ham presuppozitsiya hodisasini o'rganib, o'z fikr mulohazalarini bildirib, uni guruhlab o'rganganlar. Xususan, A.Nurmonov turli adabiyotlarda bilishning umumiy fondi sifatida qaralayotgan presuppozitsiyani ikki guruhga bo'lib o'rganish kerakligini ko'rsatib o'tdi:

1. Logik presuppozitsiya.

2. Lingvistik presuppozitsiya.

Olim ularni bir-biridan farqlab, ma'lum tashqi signallar orqali ifodalangan presuppozitsiya *lingvistik* presuppozitsiya, tashqi signallarsiz ifodalangan presuppozitsiyani *logik* presuppozitsiya sifatida baholaydi [11;28-30].

Izlanishlar davomida nutqiy vaziyat hosilasi bo'lmish presuppozitsiyaning eksplitsit ifodasi mavjudligi haqida turli fikrlarga duch kelamiz. G.D.Arkipkinaning fikricha, gap strukturasi, uning shakliga butunlay muvofiq kelmaydigan presuppozitsiyaning o'zi yo'q... Presuppozitsiya gapning tashqi strukturasi implitsit va eksplitsit ifodasiga ega bo'ladi [2;4]. I.V.Samoylova ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Tilshunos olim Xoang Fe esa presuppozitsiyani ifodaning implitsit mazmuniga tenglashtirib bo'lmasligini ta'kidlaydi [15;310]. Ko'makchilar pragmatikasni o'rgangan tadqiqotchi Z.Burxonov esa presuppozitsiyani gapning tashqi strukturasi to'liq namoyon bo'lmasligini, lekin

uning tashqi signallari sintaktik strukturadan o'rin olishini ko'rsatib presuppozitsiyaning emas, unga ishora qiluvchi birliklarning eksplitsit ifodasi xususida fikr yuritish kerakligini ta'kidlaydi [3;8].

Presuppozitsiya hodisasi nutqiy jarayon ishtirokchilariga sintaktik strukturani ixchamlashtirish, til birliklarini nutqiy vaziyatda tejash imkonini beruvchi, nutq egalariga muomala jarayonida tilning ichki imkoniyatlarini boshqa til egalariga ko'rsatib berishda yordamga keluvchi hodisadir.

Z.Burxonov **bo'yicha** ko'makchili qurilmasi orqali ifodalangan lingvistik presuppozitsiyada voqelangan sodda gapdagi shakl va mazmun nomuofiqligini quyidagicha ko'rsatib beradi:

Kenja har kungi odati bo'yicha qora qumg'onni olib chayla orqasidagi ariqchaga ketdi.

Kenjaning har kungi odati qora qumg'onni olib chayla orqasidagi ariqchaga ketishdir.

Kenja chayla orqasidagi ariqchaga ketdi.

Tadqiqotchi ushbu sintaktik strukturalarni qiyoslab presuppozitsion tomonini tahlil qilar ekan, semantik jihatdan bog'liq gaplarni bir sodda sintaktik shaklga keltirishda presuppozitsiya yordamga kelishini, presuppozitsiyani nutqiy hosilaning ichki strukturasi orqali anglashiluvchi hodisa bo'lgani sababli **bo'yicha** ko'makchili qurilmalar ishtirokida tuzilgan gaplarning qurilishi qolipida aks etmasligini ko'rsatib o'tadi.

O'zbek tilshunos olimalaridan biri semantik va sintaktik strukturada yuzaga keluvchi shakliy va mazmuniy nomuofiqlikka o'z munosabatini bildirar ekan, D.Lutfullayeva *Sodda gaplarda yo'qlik ma'nosining yashirin ifodalanishi* nomli ishida sintaktik va semantik strukturadagi nomuofiqlikka ishora qiluvchi asosiy vosita sifatida lingvistik presuppozitsiyani ko'rsatib o'tadi.

Bunda predikat qanday shaklda bo'lsa (bo'lishli yoki bo'lishsiz), presuppozitsiya orqali ifodalangan ikkilamchi propozitsiya unga zid harakterda bo'lishini ta'kidlab o'tadi [8;11-17].

A.Nurmonov esa *...dan tashqari* tashqi signali orqali ifodalangan zidlik munosabadidagi ikki propozitsiyalarni gap predikati qanday xarakterda bo'lishidan qat'iy nazar ularning biri inkor, biri esa tasdiq shaklda bo'lishi ko'rsatib o'tadi [11;42].

TAHLIL VA NATIJALAR

Presuppozitsiya hodisasi axborotni yashirin ifodalashi jihati bilan lingvistik pragmatikaning bir bo'lagi bo'lmish tagma'noga yaqin hodisa bo'lib, ular bir qarashda aynan bir xil hodisadek ko'rinsa-da, aslida bir-biridan butunlay farqlanuvchi hodisalardir. U.Rahimov tagma'no va presuppozitsiya hodisalarini tahlil qilib, ularning qiyosida o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatib o'tadi. Olim *Bahor ham keldi* gapini tahlil qilar ekan, bu jumlada presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vosita sifatida *ham* yuklamasi, obyektiv borliqdagi holat so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabat, nutqiy vaziyat, voqelik haqidagi oldindan ma'lum bilimlar singari vositalarga ishora qiladi. *Bahor ham keldi* gapidan ifodalangan tagma'no uchun eng e'tiborli jihat sifatida so'zlovchi va tinglovchi tomonidan tuzilgan *sirli sulhni* ko'rsatib, u orqali ifodalangan ma'no *barcha* uchun tushunarli emasligi ta'kidlab o'tadi. Bu esa gapdan anglashilgan tagma'noning asosiy ishora vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bundan xulosa shuki, presuppozitsiya va tagma'noni farqlab turuvchi asosiy jihat sifatida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi sirli sulhni ko'rsatish mumkin.

Tagma'no va tagbilim (presuppozitsiya)ni farqlab o'rgangan tilshunos olim M.Hakimov tagma'noning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida nutq ishtirokchilaridan kimdir matndagi yashirin mazmundan bexabarligini ta'kidlaydi [6;30]. Presuppozitsiyani tagbilim atamasi ostida talqin qilgan professor M.Hakimov presuppozitsiyani aniqlash matn orqali bayon qilingan semantik strukturani tahlil qilish usuli bilan aniqlashni ko'rsatib o'tadi [6;30].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, presuppozitsiya hodisasi kuzatilgan har qanday sintaktik strukturada semantik va sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelishini ko'rishimiz mumkin. Bunga presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar sintaktik strukturaga ikkilamchi propozitsiyani yuklab, sintaktik strukturani mazmunini saqlagan holda shaklini qisqartirishga xizmat qilishini sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арутюнова Н.Д. Понятие presupпозиции в лингвистике // Известия АН СССР. Серия лит.и яз. - 1973. Т. 32. Вып. №1.

TILSHUNOSLIK

2. Архипкина Г.Д. К вопросу об использовании пресуппозиций в семасиологическом анализе / Грамматика и семантика предложения: Лингвистическая исследования. - М., 1984.
3. Бурхонов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишқлар прагматикаси (пресуппозицион аспект). Фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008.
4. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. - М., 1981.
5. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, Akademnashr, 2013.
6. Ҳақимов М. Тагмаъно ва тагбилимхусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, – 2001. – №1.
7. Кифер Ф. О пресуппозициях // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. - М., 1978.
8. Лутфуллаева Д. Тасдиқ гапларда шаклий-мазмуний номувофиқлик. Тошкент. – 1997.
9. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гал // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, - 1986.
10. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент, 1992.
11. Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси / -дан ташқари конструкцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986.
12. Падучева Е.В. Понятие презумпции в лингвистической семантике / Семиотика и информатика. №8. - М., 1977.
13. Фреге Г. Смысл и денотат // Семиотика и информатика. – М., 1977. Вып. 8.
14. Хоанг Фе. Семантика высказывания // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. ХУ1. - М., 1985.